

STRUCTURE OF PHRASEOLOGISMS AND THEIR CLASSIFICATION.**Ziyodova Feruza Ravshanovna.**

Master's student of Karshi International University,

FZiyodova@bk.ru.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321637>**FRAZEOLOGIZMLARNING TUZILISHI VA ULARNING TASNIFI.****Ziyodova Feruza Ravshanovna.**

Qarshi Xalqaro Universiteti magistranti,

FZiyodova@bk.ru.

Аннотация: В данной статье анализируется лингвистическая природа фразеологических единиц, их структурные особенности и критерии классификации. Фразеологические единицы представляют собой важный слой языка, отражающий культуру, исторический опыт и национальное мышление народа. В исследовании рассматриваются структурные и семантические свойства фразеологизмов, их грамматическая организация, а также классификация по различным лингвистическим критериям. Особое внимание уделяется различиям между фразеологическими единицами и свободными словосочетаниями. Результаты показывают, что фразеологизмы могут классифицироваться по структурным, семантическим и стилистическим признакам и играют важную роль в усилении выразительности речи.

Ключевые слова: фразеологизм, фразеология, структурный анализ, семантическая единица, существительное, прилагательное, наречие, местоимение, числительное, идиоматическое значение, классификация, языкознание.

Abstract : This article analyzes the linguistic nature of phraseological units, their structural features, and classification criteria. Phraseological units represent an important layer of language that reflects the culture, historical experience, and national thinking of a people. The study examines the structural and semantic properties of phraseological expressions, their grammatical organization, and their classification based on different linguistic criteria. Special attention is given to the differences between phraseological units and free word combinations. The results show that phraseological units can be classified according to their structural, semantic, and stylistic features, and they play a significant role in making speech more expressive and emotionally rich.

Keywords: phraseologism, phraseology, structural analysis, semantic unit, noun, adjective, adverb, pronoun, numeral, idiomatic meaning, classification, linguistics.

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologizmlarning lingvistik tabiati, ularning struktur tuzilishi hamda tasniflanish mezonlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Frazeologik birliklar tilning obrazli va emotsional qatlamini tashkil etuvchi muhim vositalardan biri bo'lib, bunda har bir frazeologik birliklar xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi va milliy tafakkurini aks ettiradi. Tadqiqot davomida frazeologizmlarning grammatik qurilishi, semantik yaxlitligi va ularning turg'unlik darajasi hamda uslubiy xususiyatlari o'rganildi. Bundan tashqari mazkur maqolada frazeologizmlarning sintaktik-morfologik jihatdan ma'lum bir guruhlarga ajratilib, misollar bilan



ko'rib chiqildi. Shuningdek, frazeologik birliklarning erkin so'z birikmalaridan farqli jihatlari misollar asosida yoritildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar struktur va semantik xususiyatlariga ko'ra turli guruhlariga ajraladi hamda nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim vazifani bajaradi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, frazeologiya, struktur tahlil, semantik birlik, ot, sifat, ravish, olmosh, son, idiomatik ma'no, tasnif, tilshunoslik.

INTRODUCTION

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil va murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Frazeologiya so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib phrasis-ifoda, logos-talimotga degan ma'noni bildiradi. Frazeologiya tildagi turg'un birikmalarni, ularning ma'nosi, tuzilishi va funksional xususiyatlarini o'rganadi, va shu tilning frazeologizmlar majmui hisoblanadi. Frazeologizmlar bu til hodisasini bo'lib, badiiy va og'zaki nutqqa daxldor birliklardir. Frazeologik birliklar xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati va milliy dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilning boyligini namoyon etadi. Har bir xalq o'zining ruhiyati, urf-odati va hayotiy tajribasini frazeologik birliklar orqali ifodalaydi.

Frazeologizmlar nutqda tayyor holda qo'llanadigan va ko'pincha ko'chma ma'noni anglatuvchi birliklardir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishida tashkil topgan, obrazli bitta ma'no beradigan lisoniy til birligi bu FRAZEOLOGIZM deyiladi. Masalan: o' takasi yorildi (qo'rqdi). Ingliz tilida: Cry over spilled milk, (O'tgan ishga afsus qilish). Frazeologizmlar frazeologik birikmalar, frazeologik birliklar, ba'zida iboralar deb ham yuritiladi. Frazeologiya leksikologiya bo'limning tarkibiy qismidir. Frazeologik birliklar so'z birikmasi, qo'shma leksemalardan iborat bo'ladi. Masalan, O'zbek tilida "ko'z yumdi", "boshi osmonga yetdi", "til topishmoq" kabi iboralar tarkibidagi so'zlarning oddiy ma'nosidan farqli ravishda yangi semantik mazmunni ifodalaydi. Shu jihatdan frazeologik birliklar oddiy sintaktik birikmalardan keskin farq qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki ular nafaqat tilning lug'aviy qatlamini boyitadi, balki inson tafakkuri va milliy madaniyatini ham aks ettiradi. Frazeologik birliklarni tadqiq qilish lingvokulturologiya, pragmatika, tarjimashunoslik va kognitiv tilshunoslik kabi sohalar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi frazeologizmlarning tuzilishi va ularning tasnifini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida frazeologik birliklarning struktur-semantik xususiyatlari, grammatik shakllari hamda uslubiy vazifalari keng yoritiladi.

Methods. Metodlar.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: Tavsifiy metod – frazeologik birliklarning umumiy xususiyatlarini izohlash uchun; Struktur-semantik tahlil – frazeologizmlarning grammatik qurilishi va ma'no yaxlitligini aniqlash uchun; Qiyosiy metod – frazeologik birliklarni erkin birikmalar bilan taqqoslash uchun; Kontekstual tahlil – badiiy matnlardagi frazeologizmlarning funksional vazifasini aniqlash uchun. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilining frazeologik lug'atlari, ilmiy manbalar va badiiy adabiyotlardan foydalanildi. Frazeologik birliklarni tasniflashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

1. struktur qurilishi;
2. semantik xususiyati;



3. grammatik shakli;

4. uslubiy qo'llanishi. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar sintaktik-morfologik jihatdan tahlil qilindi, Har bir so'z turkumiga kiruvchi frazemalar ajratilib o'zbek va ingliz tillarida misollar bilan isbotlab berildi.

Results. Natijalar.

Frazeologizmlarning tuzilishi: Frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi. Ularning tarkibidagi so'zlar mustaqil ma'nosini qisman yoki to'liq yo'qotib, yagona ko'chma ma'noni hosil qiladi. Frazeologizmlar tashqi ko'rinishi jihatdan so'z birikmasi va gap ko'rinishida bo'ladi. So'z ko'rinishidagi frazeologizmlar: o'zbek tilida: ko'ngli bo'sh, bel bog'lash, tili uzun, qo'li ochiq, jon kuydirish. Ingliz tilida : On cloud nine-yettinchi osmonga yetmoq, Open - handed-saxiy, take to heard-yurakda yaqin olmoq. Gap ko'rinishidagi frazeologik birikmalar: O'zbek tilida : kapalagi uchib ketti, tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketti, tomndan tarasha tushganday bo'ldi, boshi osmonga yetdi. Ingliz tilida: practice makes perfect, walls have ears, time is money. Frazeologik birliklar asosan belgi, harakat, va xususiyatini ifodalab keladi. Ular grammatik jihatdan ma'lum bir so'z turkumi vazifasida gapda kela oladi.

Fe'l so'z turkumi oid frazeologizmlar: O'zbek tilida : tepa sochi tikka bo'lmoq, qo'l qovushtirib o'tirmoq, ko'ngli joyiga tushmoq, burni ko'tarilib qolmoq, hafsalasi pir bo'lmoq. Ingliz tilida : Hit the books (qattiq o'qimoq), Bite the bullet (qiyinchilikka bardosh bermoq), get cold feet (qo'rqib qolmoq).

Sifat so'z turkumiga oid frazeologik birliklar : O'zbek tilida: ko'ngli bo'sh, yuragi toza, tili zahar, tishi o'tkir, og'zi qulog'ida, qo'li ochiq, avzoyi buzuq, basharasi sovuq, qovog'i soliq. Ingliz tilida: big - headed (manman), open-handed (saxiy), easy-going (kirishimli), long - faced (xafa), weak-kneed (qo'rqoq).

Ravish so'z turkumiga oid frazeologik birikmalar: O'zbek tilida: ko'z ochib yumguncha, jon-jahdi bilan, ko'r-ko'rinadi, hech ikkilanmay, qadamba-qadam, oyoq uchida, kun-u tun, bir zumda. Ingliz tilida: Step by step (bosqisma-bosqich), once a blue moon (kamdan - kam), by heart (yoddan), little by little (kamdan - kam), from time to time (vaqti - vaqti bilan).

Olmosh so'z turkumiga oid frazeologik birikmalar: O'zbek tilida: o'z-o'zidan, kim bilsin, kim nima desa desin, hech narsa ko'rmagandek, o'z - o'zidan, nima bo'lsa bo'lar. Ingliz tilida : Each other (bir - biri), by oneself (yolg'iz o'zi), none of your business (sending fishing emas), be yourself (o'zing bo' l), Who knows (Kim bilsin), each and everyone (Har bir kishi).

Son so'z turkumiga oid frazeologik birliklar: o'zbek tilida: bir yo'lak ikki ish, ikki o't orasida qolmoqda, bir tiyin qiymati yo'q, besh qo'l barobar emas, yetti o'lchab, bir kes, ming marta aytmoqda, uch kunlik dunyo, ikki og'iz gap. Ingliz tilida: one in a million (noyob), one and only (bitta va yagona), kill two birds with one stone (bir Ishda ikki natija), nine to five (kunduzgi ish), put in two cent (o'z fikrini qo'shmoq).

Discussion. Muhokama.

Frazeologik birliklar tilning emotsional va ekspressiv qatlamini boyituvchi muhim vosita hisoblanadi. Ular insonning ruhiy holatini, his-tuyg'ularini va ijtimoiy munosabatlarini obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi. Frazeologizmlarning eng muhim xususiyati ularning



turg'unligi va semantik yaxlitligidadir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning tuzilishi oddiy sintaktik birikmalardan farq qiladi. Erkin birikmalarda har bir so'z o'z mustaqil ma'nosini saqlab qoladi, frazeologik birliklarda esa komponentlar yagona semantik markazga birlashadi.

Frazeologizmlarning tasnifi tilshunoslikda muhim nazariy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Vinogradovning semantik tasnifi frazeologik birliklarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, grammatik va uslubiy tasniflar ham frazeologik birliklarning funksional imkoniyatlarini ochib beradi.

Frazeologik birliklar tarjimashunoslikda ham murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ularni boshqa tilga aynan tarjima qilish ko'pincha imkonsiz bo'ladi. Tarjimon iboraning ma'nosi bilan bir qatorda uning milliy-madaniy va uslubiy xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak. Frazeologik birikmalarni gapda umumiy bir ma'noda ifodalanadi, va bitta so'roqqa javob bo'ladi. Ular sintaktik - morfologik jihatdan chuqur o'rganish talab qilinadi.

Conclusion. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlar tilning muhim va murakkab birliklaridan biridir. Ular turg'un komponentlardan tashkil topib, ko'pincha ko'chma ma'noni ifodalaydi. Frazeologik birliklar struktur, semantik, grammatik va uslubiy jihatdan turli guruhlarga ajraladi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklarning: semantik yaxlitligi, obrazlilik xususiyati, emotsional-ekspressiv vazifasi, grammatik tuzilishi aniqlab berildi. Frazeologik birikmalarni sintaktik va morfologik jihatdan o'rganilishi kerakligiga xulosa qilindi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni tahlili, ularning ma'no jihatidan murakkabligi o'rganib chiqildi. Frazeologizmlarni chuqur o'rganish tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

References. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Vinogradov, V.V. Osnovnye tipy frazeologicheskix edinits v russkom yazyke. Moskva, 1977y.
2. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, 1992y.
3. Kunin, A.V. English Phraseology. Moscow, 1984y.
4. Mamatov, A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklar. Toshkent, 2010y.
5. Yo'ldoshev, B. Frazeologiya va frazeografiya asoslari. Samarqand, 2015y.
6. SH. Raxmatullayev O'zbek tili omonimlari lug'atini. Toshkent 1984y.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili — Toshkent, 2005y.
8. Rasulov R. O'zbek tilining frazeologiyasi — Toshkent, 1992y.
9. Mengliyev B. O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi — Toshkent, 2010y.
10. Shomaqsudov A., Rasulov I. O'zbek tili frazeologik lug'ati — Toshkent, 1988y.

Qo'shimcha manbalar:



1. Oxford Advanced Learner's Dictionary — Oxford University Press.
2. Cambridge Dictionary of Idioms — Cambridge University Press.

